Mehnat muhofazasi yaxshilash bo‘yicha bajariladigan barcha ishlar bir yilga, besh yilga va kelajakka mo‘ljallangan rejalar asosida amalgam oshiriladi.

Mehnat muhofazasini yaxshilash bo‘yicha tuziladigan bir yillik rejada ko‘zda tutiladigan tadbirlar tashkilot mamuriyati bilan kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasida tuzilgan mehnat muhofazasi bo‘yicha jamoa shartnomasida o‘z ifodasini topadi. Jamoa shartnoma loyihasi yil boshida ishchilarning umumiy majlisida muhokamaga qo‘yiladi va u maqullangach tashkilot mamuriyati hamda kasaba uyushmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Mehnat muhofazasini yaxshilash bo‘yicha tuziladigan tadbirlar asosan quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- ishlab chiqarishda bahtsiz hodisalarni oldini olish:
- barcha yangi qurilayotgan o‘bektlar mehnat muhofazasi va havfsizlik texnikasi masalalarni qamrab olgan ishlab chiqarish ishlari loyihasi bilan ta‘minlash;
- sodir bo‘lgan bahtsiz hodisalarni yana takrorlanmasligi uchun ularni tahlil qilib berish;
- havfsiz mehnat sharoitini ta‘minlaydigan yangi moslama va vosotalar ishlab chiqarish
- ishlab chiqarishda kasallanishni oldini olish:
- ish joylarida va dam olish honalarida normal mikro iqlim bo‘lishini ta‘minlash;

- ishchilar va hodimlarni ishga va ishdan avtobuslarda yoki shu maqsadlar uchun mahsus jihozlangan avtomobillardagina tashish;
- belgilangan ish turlari bo'yicha tibbiy ko'riklarni tashkil etish.

V) Mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun:

- ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar va yangi texnikalarni joriy etish;
- Xavfsizlik texnikasi holatini yaxshilashga yo'naltirilgan musobaqalar tashkil etish.

G) Mehnat muhofazasi va havfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish va hamda boshqa targ'ibot ishlarini olib borish uchun:

- barcha ishchilar va injener texnik hodimlarni havfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitishda, yo'riqnomalar berish va bilimlarini sinovdan o'tkazish;
- havfsizlik texnikasi va favqulotda hayot faoliyat havfsizligi bo'yicha kabinetlar tashkil etish.

Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish.

Yengil avtomobil ishlab chiqarishda har bir faoliyat ko'rsatadigan ishchi va hodim o'ziga biriktirilgan ishni havfsiz bajarish uchun chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Buning uchun esa ularni mehnat muhofazasi va havfsizlik texnikasi bo'yicha malakali o'qitish talab etiladi.

Yengil avtomobil ishlab chiqarish tsexida ishlab chiqarishdagi barcha ishchilar barcha ishlarning harakteri va havfsizlik darajasidan qattiy nazar mehnat havfsizligi bo'yicha o'qitilib, bilimlari tekshirilib ko'rilganda so'ng ishga ruhsat etiladi. Tsexdagi ishchilarni mehnat muhofazasi va havfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish, ularga yo'riqnomalar o'tish orqali amalga oshiriladi.

Yo'riqnomalar asosan kirish yo'riqnomasi, ish joyida birlamchi yo'riqnomasi, navbatdagi yo'riqnomasi, navbatdan tasashqari yo'riqnomasi, davriy yo'riqnomalarga bo'linadi. Ishchi xodimlar bu hamma yo'riqnomalar o'tkazib va yana kurs o'qishlari o'qitiladi, keyin esa hodimlarga guvohnoma beriladi.

Ishlab chiqarish tsexida mahsus kiyim boshlar, shahsiy himoya vositalari va uning profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasining "Mehnat qonunlari kodeksi"

va “Mehnat muhofaza qilish” qonunlari asosida mehnat sharoiti zararli bo‘lgan ishlarda, shuningdek alohida harorat sharoitida bajariladigan joyini ifloslantiradigan ishlarda ishlovchi xodimlarga belgilangan me’yorda maxsus kiyim bosh, maxsus poyafzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari tekinga beriladi.

Korhona muassasa yoki tashkilot mamuriyat maxsus kiyim bosh, maxsus poyafzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini saqlash, yuvish tozalsh va ta’mirlashnita’minlashi,

shuningdekbuvositalardanfoydalanishnidoimiynazoratqilibborishlarizarur.

YYengil avtomobil ishlab chiqarish tsexida ham bunday sharoit to‘liq yo‘lga qo‘yilgan va ma’sul shaxslar tomonidan doimiy nazaorat qilib boriladi. Bundan tashqari ifloslnish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda ishchilarga belgilangan me’yorda sovun va boshqa hil zararsizlantiruvchi vosaitalar ham tekinga beriladi.

Maxsus kiyim bosh va shaxsiy himoya vositalarini foydalanish muddatlari o‘rnatilgan bo‘lib, u quyidagicha belgilangandir: korjomlar, poyafzallar 12 oy, qo‘lqoplar 1 yoki 2 oy, himoya kaskalari2 yil, issiq kiyim boshlar 3 yil.

Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va xisobga olish.

O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakillaridagi korxonalar, tashkilotlar, shuuning dek, mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yuz bergan hodisalarni va hodimlar salomatligini boshqa hil zararlanishi tekshirishini va xisobga olish-VazirlarMahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida olib boriladi.

Mazkur nizom: Ishlab chiqaruishda ishlayotgan davrida sud hukmi bo‘yicha jazoni o‘tayotgan fuqarolarga, ish beruvchilarga, muddat va topshiriqlarga ko‘ra fuqarolik va huquqiy shartnomalar bo‘yicha ishlarni bajarayotgan shaxslarga, tabiiy va texnogen tusidagi favqulotdagi vaziyatlarni bartaraf etishda qatnashayotgan fuqarolarga, korhonada ishlab chiqarish amaliyotini o‘tayotgan talabalar va o‘quvchilarga ham tadbiiq etiladi. Tabiiy o‘lim, o‘zini-o‘zi o‘ldirish, jabirlanuvchining o‘z salomatligiga qastdan shikast yetkazishi, shuningdek



jabrlanuvching jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari tekshirilmaydi va xisobga olinmaydi.

Ish beruvchi tekshirish tugaganidan so'ng uch sutkadan kechiktirmay jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga davlat tilida yoki boshqa maqbul tilda rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa to'g'risidagi N-1 shakldagi dalolatnoma berishi kerak. Ish beruvchi bilan davlat mehnat texnika nazoratchisio'rtasidagi anglashilmovchilikni bosh davlat nazoratchisi hal qiladi. Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

bir vaqtning o'zida 2 va undan ortiq hodimlar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalar, o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar, oqibati og'ir baxtsiz hodisalar; guruhiy o'lim bilan tugun va oqibati og'ir baxtsiz hodisa to'g'risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan quyidagilarga xabar berish kerak: davlat texnika nazoratchisiga, yuqori turuvchi xo'jalik organiga.

Agar baxtsiz hodisa O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiya kengashiga a'zo tashkilotda yuz bersa, u xolda kasaba uyushmalarining bosh mehnat texnik nazoratchisi komissiya tarkibiga kiritiladi.

Besh va undan ortiq kishi o'lgan baxtsiz hodisalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi. Maxsus tekshirish komissiyasi 15 kun mobaynida baxtsiz hodisani tekshirib chiqadi, korxonadagi mehnatni muhofaza qilish ahvolini. Agar zarur bo'lsa, tarmoqning boshqa korxonalarida ham tekshirishni tashkil etadi, maxsus tekshirish dalolatnomasini tuzadi.

Ish beruvchi maxsus tekshirish komissiyasi taklif qilgan chora-tadbirlarning bajarilganligi xaqida maxsus tekshirish o'tkazishni boshqargan bosh davlat mehnat texnika nazoratchisiga, "O'zsanoatkontexnazorat" davlat qo'mitasining ob'ektlar nazorati ostida bo'lgan mahalliy organlarga yozma ravishda axborot beradi.

## **IV. 2. Metallarga sovuq holda pressda ishlov beruvchi shtamplovchi ishchilar uchun mehnat muhofazasi.**

Metallarga sovuq holda pressda ishlov beruvchi shtamplovchi dastgohlarda ishlashga yoshi 18 yoshdan kam bo'lmagan, tibbiy ko'rikdan o'tgan, kirish yo'riqnomasi, ish joyida dastlabki yo'riqnomadan, ish joyida ish o'rganib malaksi yetarli bo'lgandan so'nggina press dasgohiga qo'yiladi. [14]

Bilimlarni qayta sinash har 12 oyda bir marotabadan kam bo'lmagan muddatda o'kaziladi. Ishga qabul qilinayotgan hodim yong'in havfsizligi yo'riqnomasidan o'tkaziladi. Ish joyida yo'riqnomadan har 3 oydan kam bo'lmagan nmuddatda qayta otiladi. Bundan tashqari shtamlovchi ish joyi ozgarganda, yo'riqnoma texnologik protses, dasgohlar va ish qurollari o'zagrganda, 30 kalendar kundan ortiq ishda bo'lmagan hollarda qayta yo'riqnomadan o'tishlari shart.

### **Ishning majburiyatlari:**

- Korhona ichki tartib qoidalariga qat'iy rioya qilish;
- Kirishyong'in havfsizligivaushbuyo'riqnomatalablarinibajarishhamdaelekt rhavfsizligiqoidalarigarioyaqilish;
- Ishchiningoldinbajarmaganishungatopshirilgandaishnihavfsizbajarishbo'yichayo'riqnoma o'tkazilishinitalabqilish;
- Shahsiy himoya vositalarisiz ishga tushmasli;
- Ma'muriyat tomonidan unga topshirilgan ishnigina bajarish;
- Presslash dastgohida ishlayotganda havfsiz choralarni ko'rish;
- E'tiborli bo'lish, o'zini va boshqalarni keraksiz ish va suxbatlar bilan chalg'itmaslik;
- Korhona hududidagi avtotransport (avtokara) vositalari harakatlariga e'tibor berish;
- Jihozlar, dastgoh va mhanizimlarning xarakatidagi qisimlar, elektr simlarga tegmaslik;

- Faqatgina belgilangan o'tish-qaytish joylaridan foydalanish, o'tish yo'laklaridan begona narsalar, xom ashyo va mahsulot bilan band qilmaslik;
- Faqatgina belgilangan joylarda chekish;
- Elektr taqsimlovchi shit va javonlar eshiklarini ochilmaslik, boshqa maqsadlarda foydalanmaslik va jihozlarning tok o'tkazuvchi qisimlaridagi to'siq qobig'larini echib olmaslik;
- Vujudga kelgan nosozliklar to'g'risida o'zining bevosita raxbari (usta uchastkaboshlig'i) ga xabar berish va ular bartaraf etilmaguncha ishni boshlamaslik;
- Birinchi o't ochirish vositalaridan foydalana bilish;
- Jarohatlangan shaxsga shifokor kelgunga qadar birinchi tibby yordam ko'rsata bilish va master yoki linya boshlig'iga xabar berish;
- Bajarilayotgan ishga aloqador bo'lmagan shxslarni ish joyiga qo'ymaslik;
- Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ish vaqtida alkagol ichimliklar iste'mol qilmaslik, ish vaqtida mast holatga bo'lmaslik;
- Ish joyida ovqatlanmaslik;
- Ish vaqtida qo'lga uzuk yoki boshqa taqinchoqlar taqmaslik;
- Qo'llarini yog', temir toponi artilgan latta bilan artmaslik;
- Muayyan ishga taaluqli bo'lgan soz asbob-usjunalardan foydalanish;
- Ish joyida, ish vaqtida telefon aloqa vositalaridan, ishlab chiqarish tsexi, xududida telefon quloqchinlaridan (naushnik) foydalanmaslik;
- Yuk ko'tarish krani ogohlantirish signallariga e'tiborli bo'lish va kran harakatlanayotgan vaqtda kran yo'lga, ustiga chiqmaslik, yuk ostida turmaslik;

**Xodimga quyidagi havfli va zararli ishlab chiqarish faktorlari ta'sir etishi mumkun:**

- Uskunaning harakatdagi qisim va detallari;

- Transport vositalari avto karalar va yuk ko'tarish krani harakati;
- Izolyatsiya buzilishi natijasida tok urushi;
- Havo o'tkazish quvirlari shkastlanganda quvurdan chiqqan havo aralashmasi;
- Chiqindi metal parchasining uchishi;

#### **IV. 3. Kompyuter texnikasi bilan ishlash havfsizligi.**

Kompyuterlar bilan ishlaydiganlar: operatorlar, dasturchilar, foydalanuvchilar va kompyuterlarga bevosita bog'liq ishlovchilar qator zararli omillarga va quyidagicha oqibatlariga duch kelishlari mumkin: ko'z kasalliklari va ko'rishdagi qiyinchiliklar, suyak-pay tizimidagi o'zgarishlar, stress holatlariga sabab bo'ladigan buzilishlar, teri kasalliklari, ayollarda xomiladorlikka salbiy ta'sirlar. Bulardan tashqari turli mayda-chuyda shikoyatlar: ko'z oldining xiralashuvi, yuzda toshmalar paydo bo'lishi, bosh og'rib turishi, ko'ngil aynishi, bosh aylanishi, depressiyaga moyillik, tez charchash, mehnat faoliyatining yomonlashishi, uyquni bo'zilishi kabi salbiy oqibatlar ham tez-tez uchraydi.

Sog'liqqa salbiy ta'sir qiladigan omillarga elektromagnit va elektrostatik maydonni, akustik shovqinlarni, havo ion trakibini o'zgarishini, xona mikroiklimi o'zgarishlarini ko'rsatish mumkin. Monitor ekranidan taralayotgan nurlarga muttasil tikilib o'tirish ko'rish qobiliyatini yomonlashtiradi. Bunday vaziyatlarda ish joyining yoritilganligi, xona jihozlari, uning tavsiflari ahamiyatli bo'lib qoladi. Kompyuterlar bilan ishlagandagi xavflar.

AQSH Mehnat vazirligining ma'lumotlariga ko'ra "Kompyuterlar bilan ishlaganda tez-tez sodir bo'ladigan shikastlovchi ta'sirlar" deb atalgan omilning o'zidan mamlakat har yili 100 mlr.dollar yo'qotar ekan. Buning uchun ishlovchilarga beriladigan kompensatsiya puli juda katta raqamlar bilan ifodalanadi, jabrlanuvchilar orasida esa bir umrga nogiron bo'lib qoladiganlar uchraydi. Kompyuter oldida doimo o'tiradiganlarda "ko'z charchashi" dega hodisa bo'lib turishi ayon bo'lgan. Buni "kompyuterli ko'rish sindromi "(CV3-ComruterVision Syndromo) deb atadilar. Kompyuter oldida soatlab o'tirgan odamning ko'zlarida bo'shashish fazasi bo'lmaydi, ko'zlar zo'riqadi, ishlash

qobiliyati pasayadi. Ayniqsa qog'ozga yozilgan axborotni kompyuterga kiritishda shunday bo'ladi. Bunda ko'z o'zi odatlangan tabiiy axborot-qog'ozdagi yozuvga, tugmalarga, ekranga galma-galdan tikiladi. Bu ob'ektlar ko'zlardan turli masofalarda turadi, turlicha yoritilgan bo'ladi.

Ko'zning charchashida ko'z oldi xiralashadi, nigohini yaqindagi buyumdan uzoqdagi buyumga yoki aksincha olib o'tish qiyin kechadi, buyumlarning rangi boshqacha ko'rinadi, qo'shaloq ko'rinadi, ko'z ichi achishadi, qum qadalgandek bo'ladi, qovoqlari qizaradi, ko'z soqqasi xarakatlanganda og'riydi va x.k. Kompyuter bilan ishlaganlarda mikro shikastlanish (travma) ro'y berishi mumkin ekan. Mikrotravma, bu-har kunigi, muttasil zo'riqishlar natijasida organizmning asta emirilishidir. Og'riq seziladigan darajaga borgunicha uzoq vaqt noto'g'ri holatda qadalib o'tirish yoki noto'g'ri xarakatlar bilan band bo'lishga to'g'ri keladi. Og'riq turlicha bilinadi: achishish, sanchiq, o'q qadalgandek va b. Mikrotravmalarga, kompyuter bilan ishlashdagi doim takrorlanadigan yuklamalar ham sabab bo'lishi mumkin. Umurtqaga katta yuk tushib, bo'g'in disklari orasidagi suyuqlikni orqaga siqib chiqaradi, qomatni ushlab turadigan mushaklarni ortiqcha cho'zib yuboradi. Bundan tashqari boshda, bo'yin va qo'lda og'riq paydo qiladi, odamni bukchaytirib qo'yishi mumkin. Bukchayishdan boshqa oqibatlar kelib chiqadi: elkaning bukilib qolish sindromi bilan kanali sindromi (BKS).

Meditsina xodimlari yangicha kasallik atamasini "display operatorining stress sindromi" (VODS) kiritdilar. Uning belgilari: bosh og'rig'i, tez charchash va bo'shashish, uyqu buzilishi, elka va bilaklarda og'riq, mushaklarning zo'riqib turish hissi, elka va barmoqlarning yallig'lanishi, ko'z atrofida noxush sezgilar, ko'z achishishi va allergiyasi. Astmatik belgilar, ruhan ezilganlik, jizzakilik, bo'shashish, depressiya holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Axborot bosimi bilan "analitik falajlik" deb atalmish tushuncha (olinayotgan axborotni taxlil qilolmay qolish) orasida qandaydir bog'lanish kuzatiladi. Zo'riqib mehnat qilish, operator xatosining oqibatlari katta bo'lishi, natijalarni havotirli-ezuvchi yutishlar, xissiy zo'riqishlarni yozib yubormaslik, hammasi shaxsning neyrotizimiga olib keladi; bu holat avloddan avlodga o'tishi mumkin.

Kompyuterda ishlovchilar mehnati yuklama darajasi yuqori bo'lgan texnik mehnat shakliga kiradi. Bu faoliyat ekrandagi tasvirni qabul qilish yo uni uzluksiz kuzatish, shakllar, sxemalarni farqlash, qo'lyozma va mashinka yozma materiallarni o'qish, axborotni termalar orqali kiritish, diqqatni jamlash bilan bog'liq. Kompyuterlar bilan ishlash operator sog'lig'iga katastrofik xavf tug'dirar ekan. [20]

Kompyuter bilan ishlashda xavflarning to'rt xili mavjud:

A) Jismoniy xavflar:

- past chastotali elektr va magnit maydonlarining yuqori darajasi;
- past energiyali (yumshoq) rentgen nurlanishlarning yuqori darajasi;
- statik elektr;
- lazerli, ultra bitnafsha va infra qizil nurlanishlarning yuqori darajasi;
- ish zonasi yoritilganligining anemal darajasi;
- odamning ko'rish maydonida yorug'lik tasvirining ortiqcha yorqinligi;
- odamning ko'rish maydonidagi yorug'likning juda notekis taqsimlanganligi;
- ekran tashqarisidan ortiqcha yoritilganligi;
- yorug'lik manбайдan chiqayotgan nur oqimining ortiqcha pulslanishi;
- yorug'lik manbaining ishlashga noqulay nurlanish spektri;
- tasvirning vaqtincha o'ta beqarorligi;
- ekranning lipillashi;
- ekranning nurlanishi yorqinligining o'zgarishi;
- ishlovchining ko'rish maydoniga turli nurlanuvchi ob'ektlardan kuchli yorug'lik tushishi natijasida kuchli yaltirash;
- ko'zguli aks etish (shu jumladan, ekrandan) tufayli aks etuvchi kuchli yaltirash;
- ish zonasidagi havoning kuchli harakatlanishi, anemal xarorati, namligi;
- elektr tarmog'idagi yuqori kuchlanish (qisqa tutashuv odam tanasi orqali bo'lishi ehtimoli);
- yong'in.

B) Kimyoviy xavflar:

- chang;

-printerlar va nusxa olish texnikasi ishlaganda ajralib chiqadigan zararli kimyoviy moddalar.

V) Biologik xatarlar:

-ko'p odam ishlaydigan bino (xonalarda) shamollatish etarlicha bo'lmagan sharoitlarda, ayniqsa epidemiya davrida, havoda patogen mikroorganizmlarning ko'p bo'lishi.

G) Psixofiziologik xavflar:

-ko'rish va diqqatning zo'riqishi;

-intellektual va hissiy zo'riqish;

-mexnatdagi bir xillik va uzoq statistik zo'riqishlar.

Kompyuterlar bilan ishlaganda xavfsizlikni ta'minlash.

Kompyuterlar bilan ishlaganda yo'l qo'yiladigan xatolar quyidagilar:

-xonaning maydoni va hajmining etarli emasligi;

-xonaning xarorati va namligiga quyiladigan talablarga rioya qilmaslik;

-xona va apparatlarning ishchi yuzalaridagi yoritilganlikning etarli emasligi;

-monitorlardan hosil bo'layotgan past chastotali magnit maydonlarining yuqori darajasi;

-texnika vositalarining o'zboshimchalik bilan joylashtirib, ish o'rinlarini tashkil etish talablarini buzish;

-mehnat va dam olish rejimlariga rioya qilmaslik;

-ishlovchilarni xaddan tashqari yuklab qo'yish;

-psixoemotsional zo'riqishlar ta'sirini pasaytirish

Kompyuterlar bilan ishlaganda mehnat xavfsizligi masalalari O'zR sog'liqni saqlash Vazirligi Bosh Davlat Sanitar vrach tomonidan 29.03.2007 yilda tasdiqlangan "SHaxsiy kompyuterlar, videodispley terminallari va orgtexnika vositalari bilan ishlaganda sanitariya qoidalari va me'yorlari" (SanPiN № 0224-07) qatiyalashtirilgan.

#### **IV. 4. GM-GMS Tizimida Xodimlar salomatligi va hafsizligi.**

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya hukumati o'z oldiga vayron bo'lgan ishlab chiqarishni juda tez tiklash vazifasini qo'yadi. Shuningdek bunga g'arbdagi kompaniyalarga raqobatdosh bo'lish lozimligi talab etilgan edi. Toyota korporatsiyasi rahbariyati o'z oldiga Uch yil ichida g'arbdagi ishlab chiqarish kompaniya ko'rsatkichlaridan o'tib ketish maqsadini qo'yadi. Ular qo'yilgan maqsadga erishish uchun ommaviy ishlab chiqarishdagi plyus va minuslarni tahlil etish, eng asosan korxonada xodimlarini fidokorona ishlashlariga jalb etishni lozim deb bildilar. Muammolarni bartaraf etish uchun Toyota korporatsiyasi TPS tizimini yaratdi. GM korporatsiyasi bazasi ushbu Toyota va Suzuki filosiya g'oyani keng yoyish uchun 1996 yilda GMning GMS (Global Manufacturing System – GMS) konsepsiya yaratildi. GMS tizimi nafaqat GMning Toyota va Suzuki filosiya qism edi. GMS konsepsiya ishlab chiqarish boshqarish tizimi GM

korporatsiyasini Yagona tizim Yagona til Yagona tushuncha asosida yaratilgan bo'lib, u 5 prinsipni: xodimlarni jalb etish, standartlashtirish, biriktirilgan sifat, buyurtmani qisqa muddatda bajarish va doimiy takomillashtirish prinsplarini o'z ichiga oladi.

## **GM-GMS**

**GENERAL - JENERAL**

**MOTORC - MOTORS**

**GLOBAL - GLOBAL**

**MANUFACTURING – ISHLAB CHIQRISH**

**SYSTEM - TIZIMI**

**GM-GMS – Jeneral Motors – Global Ishlab  
Chiqarish Tizimi**

Salomatlik xavfsizlik ustuvorligi:

Korxonada qo'yilgan siyosat va maqsadlarga erishishida barcha xodimlar xavfsizlik va salomatlik talablariga rioya etishlari lozim. Xavfsizlik va salomatlik ustuvorligini ta'minlashda har qanday xavflarni kamaytirishga butun e'tiborni qaratish xodimlar xavfsizligini kafolatlaydi.



SHior: Baxtsiz hodisalar = «O» ga erishish.

Salomatlik va xavfsizlikda qanday qilib ustuvorlik bo'lishi mumkin ?

- yetakchilikni qo'llab quvvatlash;
- 100%ga xavfsizlik qoidalariga rioya etishni ta'minlash;
- intizom;
- odob-ahloqni (yaxshilash) o'zgartirish;
- xavflarni o'rganish va sabablarini bartaraf etish.

1 ta tasodifiy o'lim bilan tugaydigan baxtsiz hodisani oldini olish uchun 30000 ta baxtsiz tasodifni bartaraf etish lozim.

Havflarni kamaytirishga qo'yilgan talablar:

- xavf turlarini aniqlash;
- baxtsiz hodisalar sabablarini o'rganish;
- havfsiz metodlar bilan ish jarayonlarini ta'minlash;
- korxonada xavfsizlikni kuzatuvchi kengashini tashkil qilish;
- xizmat ko'rsatish jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlash;
- mehmonlar xavfsizligini ta'minlash;
- avariya xolatlarida qutqarish rejasi bo'lishini ta'minlash;
- ma'lumotlar almashuvi, tushuntirish, o'qitishlar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishini ta'minlash;
- jarohatlanish va kasalliklarni monitoring va tahlilini olib borish;
- jarayonlar bo'yicha xavfsizlik yetakchilarini vazifasini aniqlash;
- havfli materiallar nazoratini ta'minlash;
- havfli joylarni chegaralash;
- mashina jihozlardagi energiya manbaalarini nazoratga olish;
- ergonomika (qulaylik)ni ta'minlash;
- qurilish-ta'mirlash davrida xavfsizlikni ta'minlash;
- shovqindan himoyalani nazoratini olib borish;
- yuqoridan tushish xavfini nazoratini olib borish;
- ichki transportni xavfsizligini ta'minlash.

## **Iqtisodiy qism**

### **Avtomobil po'lat diskalarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qoliplar uchun yeyilishga bardosh qoplamalar olish texnologiyasini iqtisodiy baholash**

Avtomobil sanoatida uning yurish qismini ishlab chiqarish eng yetakchi bo'lgan sohalardan biridir. Chunki, avtotransport vositasining chidamliligi, xizmat muddatining davomiyligi kabi eng birlamchi sifat ko'rsatkichlari, mazkur ishlab chiqarish sohasining joriy va istiqboldagi taqdiriga bevosita ta'sir etadi. Mazkur muhim masalani, ishlab chiqarish jarayonlarini mahalliyashtirish (lokalizatsiya) sharoitida ijobiy hal etishning hozirgi kunda ayniqsa, dolzarbligi ortib bormoqda. Bu albatta, mijozlarning avtomashina detal va ehtiyot qismlarining sifat va bahosi mutanosibligi tarzida, turli ishlab chiqaruvchi davlatlarning bir tipdagi mahsulotlarini tanlab olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatli detal va ehtiyot qism ishlab chiqarish uchun tabiiyki, zamonaviy texnika va texnologiyalar talab etiladi, qolaversa mazkur texnologiyalarning ayrim butlovchi qismlarini davlat standartlari talabidan og'ishmagan holda ilg'or, innovatsion ishlab chiqarish usuliga moslab borish shart. Bunda, mavjud, foydalanilayotgan texnologiyalarni yurtimiz va yaqin hamda uzoq xorij mamlakatlarining analoglari bilan har tomonlama chuqur ilmiy mushohada va tahliliy ishlarga tayangan holda eng optimal tarzda takomillashtirib borish zarur. SHundagina soha faoliyatining kelgusi istiqbolda yanada rivojlanishi, milliy va jahon bozorida o'z mahsulotlari bilan yanada ko'proq shuhrat qozonishi ta'minlanadi.

Bizning bitiruv loyiha ishimiz ham huddi shu masala yechimiga bag'ishlangan bo'lib, "Avtomobil po'lat diskalarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qoliplar uchun yeyilishga bardosh qoplamalar olish texnologiyasi" mavzusi doirasida bajarildi.

Ma'lumki, avtomobil po'lat diskalarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qoliplar, ishlab chiqarish tsiklida juda ko'p marta qo'llaniladigan qurilma bo'lib, undan foydalanishda ushbu qoliplarning fizik shakli va kimyoviy

tarkibini o'zgarishsiz, ya'ni qat'iy standart talablariga muvofiqligini muntazam ravishda olib borish juda murakkab ish hisoblanadi. Chunki, avtomobil disklarini tayyorlashda mazkur qoliplar bir necha mexanik jarayonlar hamda tashqi omillar ta'sirida deformatsiyalanadi, qiziydi, korroziyaga uchraydi, sinadi va boshqa tarzda o'z xossalarini qisman yo'qotib boradi.

Yurtimizning Andijon shahrida faoliyat olib borayotgan UZAVTOAUSTEM qo'shma korxonasi avtomobillar disklarini va ayrim shassi detallarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Bizning bajarayotgan bitiruv loyiha ishimiz mazkur korxonada qo'llanilayotgan dastgohlar qoliplarining yeyilishga bardoshini oshirish masalasiga bag'ishlanadi.

Albatta, barcha tashkiliy-texnik hamda ilmiy-amaliy chora-tadbirlar ma'lum bir resurs, texnologiyalar va sarf-xarajatlarni talab qiladi. Bunda hozirgi kundagi bozordagi resurs narxlardan foydalaniladi, ishlab chiqariladigan mahsulotni narxi hisoblanib, bozordagi narxga solishtiriladi. Loyihaning natijaviyligini hisoblash bank krediti foizi stavkasi hisobga olinadi. Bunday iqtisodiy asoslash quydagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Ishlab chiqarish uchastkasining dastlabki ma'lumotlari 1-jadvalga to'ldiriladi.
  - Muammoni aniqlash uchun zarur ishlab chiqarish fondlari hisoblab chiqiladi.
  - Uchastkaning yillik ishlab chiqarish hajmi va tayyorlov narxi (mahsulot birligiga) hisoblanadi.
  - Nosozlikni aniqlash usullarini ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Unda olinadigan daromad tannarx, yalpi foyda, amortizatsiya va samaralar hisoblanadi.
  - Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari: fond qiymati, yillik mehnat unumdorligi, rentabellik hisoblanadi.
- I. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan, dastgoh, resurslar, ularni bozordagi narxlari va sarf me'yorlari (1-jadval) hisoblanadi.

N <sub>0</sub>	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1.	Disk tayyorlash tsexi	dona	1
2.	Disk tayyorlash uchastkasi qiymati	m.so'm	3127000
3.	Uchastka unumdorligi	dona/kun	1200
4.	Xomashyo narxi/(qolip)	m.so'm/dona	3200
5.	Xomashyo resurs muddati/tsikl	dona	5000
6.	Ishchilar soni	nafar	80
7.	Loyihachilar soni	nafar	3
8.	Smena soni	smena	2
9.	Elektr sarfi quvvati	Kvt/soat	60
10.	Ishchilar o'rtacha oylik maoshi	m.so'm	1100
11.	Mutaxassis o'rtacha oylik maoshi	m.so'm	2500
12.	Elektr-energiya narxi	So'm/kvt	210
13.	Yillik ishchi kunlar soati	Kun	250
14.	Ish davomiyligi	Soat	7

Avtomobil diskklarini ishlab chiqarish korxonasi yillik quvvati 120000 komplekt, ya'ni 600 ming disk ishlab chiqarishdan iborat. Ushbu korxonada asosiy qo'llaniladigan dastgoh 80 ta disk shtamplash uskunalaridan iborat. Mazkur uskuna har biriga 7 xil kolip komplektlari ishlatiladi. Kerakli o'lcham va artikuldagi diskklarni bosib chiqarish buyurtmasiga ko'ra ish tashkil qilinadi. Qoliplar resurs xizmati 5000 diskdan iborat.

II. Avtomobil diskklarini ishlab chiqarish uchastkasining ishlab chiqarish fondi hisoblab chiqiladi:

II.1. Ishlab chiqarish uchastkasi – 1 ta, narxi 3127000 m.so'm, ya'ni  $F_{uch}=3127000$  m.so'm

II.2.Ish haqi sarfini hisoblaymiz:

$$F_{yih} = I_s * I_{ho`rt} = (12 * 80 * 1100) + (12 * 3 * 2500) = 191400 \text{ m.so`m};$$

3.Yillik ish hajmi quyidagicha:

$$Q_{y.ish} = 1200 * 250 * 2 = 600000 \text{ dona/yil};$$

4.Material sarfini hisoblaymiz:

$$F_m = \sum p = F_{uch} * 2,5\% + Pen =$$

$$78175 + (191 * 60 * 0,7 * 7 * 2 * 250) = 28155175 \text{ m.som};$$

$$5.Fi/ch = F_{y.ish} + F_m = 28346575 \text{ m.so`m}.$$

6.Amortizatsiya xarajatlari (Camor):

$$Camor = 3127000 * 0,2 = 625400 \text{ m.som};$$

7.Kredit xarajatlari (Ckr-t):

$$Ckr-t = 31473575 * 0,14 = 4406301 \text{ m.som};$$

9.Cxo`j - xo`jalik sarflari umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining 0,5 foizidan oshmasligi kerak:

$$C_{xo`j} = Fi/ch * 0,05 = 141733 \text{ m.so`m};$$

10.Ctay-sh – jihozni ishga tayyorlash sarflari umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining 0,5 foizidan oshmasligi kerak

$$C_{tay-sh} = Fi/ch * 0,05 = 141733 \text{ m.so`m};$$

2-jadval

Disk ishlab chiqarish uchastkasi ishlab chiqargan mahsulot birligi bahosining kalkulyatsiyasi

No.	Ko`rsatkichlar nomi	SHartli belgi	Qiymati, so`m
1.	Xomashyo sarfi	Px1	53000
2.	Asosiy ishchilar oylik maoshi	Fih1	319
3.	Jihozni ishlatishga tayyorlash sarfi	Ctay-sh1	236
4.	Amortizatsiya xarajatlari	Camor1	1042
5.	Elektr-energiya sarflari	Pen1	46795
6.	Xo`jalik sarflari	Cxo`j1	236

7.	Kredit xarajatlari	Ckr-t1	7343
9.	Boshqa kutilmagan xarajatlar, 15 %	Cz1	16345
10.	Mahsulot tannarxi	C1	125316
11.	Bozordagi baho	Rm1	175000
12.	Yalpi foyda, ming so'm	Tπ1	29810400
13.	Soliq va majburiy to'lovlar≈5%, ming so'm	T1	596208
14.	Xizmat ko'rsatish xarajatlari, ming so'm	St1	298104
15.	Sof foyda, ming so'm	π1	28916088

Umumiy tushum (Tr) miqdori:

$$Tr = Qy.ish * Rm1 = 105 \text{ mlrd} / \text{so}^m;$$

$$Mu = 1312500 \text{ m.so}^m;$$

Umumiy iqtisodiy samara (Tπ) 28916088 ming so'mga teng bo'lib rentabellik ko'rsatkichi 39.

SHunday qilib, olingan iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra avtomobillarning diskini ishlab chiqarish jarayoni hozirgi kun bozor talablariga to'la muvofiq bo'lib, katta iqtisodiy samaradorlikka ega.

3-jadval

Disk ishlab chiqarish uchastkasini yeyilishga bardoshli qoliplar bilan loyihalash samaradoriligi

No.	Ko'rsatkichlar nomi	SHartli belgi	Qiymati, so'm
1.	Xomashyo narxi/(qolip)	m.so'm/d ona	3200
2.	Xomashyo resurs muddati/tsikl	dona	5000
3.	Ishchilar soni	nafar	80
4.	Loyihachilar soni	nafar	3
5.	Mutaxassis o'rtacha oylik maoshi	m.so'm	2500
6.	Loyihaviy xomashyo narxi/(qolip)	m.so'm/d	3700

7.	Xomashyo resurs muddati/tsikl	ona dona	5700
8.	Loyiha samaradorligi	m.so'm	4048252
9.	Loyiha umumiy sarfi	m.so'm	280000
10.	Loyihaning sof samaradorligi	m.so'm	37599252

Avtomobil po'lat diskalarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qoliplar uchun yeyilishga bardosh qoplamalar olish ishlarini iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasini o'rganganimizda, loyiha bo'yicha qo'llaniladigan qolip 3700 ming so'mga, 80 ta dastohga 7 komplektdan, ya'ni to'liq jihozlanganda, yangi yeyilishga bardoshli qolipning an'anaviy qolipga nisbatan 700 ta detal ko'proq ishlab chiqarilishiga erishiladi. SHunda loyihaning barcha sarf-xarajatlar chegirib yuborilgan sof samaradorligi 37 mlrd.599mln.252 ming so'mga teng bo'lib, ushbu avtomobil po'lat diskalarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan qoliplar uchun yeyilishga bardosh qoplamalar olish ishlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish katta samara berishi yuqoridagi iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra tasdiqlandi.

## **VI. Xulosa va takliflar**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi va rahnamoligida yurtimizda avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi xalqimizning eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda avtomobilsozlik iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib, o'zbek avtosanoati zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ko'plab korxonalarni o'z ichiga oladi.

Asaka shahridagi "General Motors Uzbekistan" kompaniyasi jahondagi nufuzli kompaniyalar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatishga asoslangan rivojlanish strategiyasi jahon standartlari darajasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Yurtimizda avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish yo'lida, listlarni sovuq xolda shtamlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan yurtimizda mavjud avtomobil extiyot qismlarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarining qariyb 80% da listlarni sovuq xolda shtamplash uchun press jihozlari mavjud. Menga birelgan bitiruv makaviy ishi "avtomobil po'lat diskalarini qoliplashda yeyilishga bardoshli materiallar va qoplamalar tanlash". Men ushbu makaviy ishti bajarish davomida, qoliplarni xorijda emas balki Uzbekistonda loyixalasak juda katta valyutani iqtisod qilgan bo'lar edik degan fikrga keldim.

Hozirgi kunda qoliplar uchun faqat xrom oqali qoliplanadi. Terma diffusion orqali qoliplanda qolipning ishlash muddati ya'na ham uzoqroq bo'ladi deb hisoblayman. Termik ishlov berish natijasida ham detalning bir muncha yeyilishini bardoshli bo'lishi mumkin ekanligiga guvohi bo'ldim.



## 9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Бакулии С. Б. Технологические расчеты процессов листовой штамповки. М., 1964.
- 2.Кухтаров В. И., Кухтаров О. В. Проектирование технологических процессов холодной штамповки. М., 1966.
- 3.Ровииский Г. У. и др. Холодная штамповка в машиностроении. М., 1954..
- 4.Ровииский Г. Н. пресовое оборудование листо штамповочных цехов. М., 1960.
- 5.Романовский В. П. Анализ напряженно-деформированного состояния в начальной стадии процесса глубокой вытяжки. — Кузнечно-штамповочное производство, 1967, № 2.
- 6.Романовский В. П. Вытяжка прямоугольных коробчатых деталей с фланцем. — Кузнечно-штамповочное производство, 1968, № 8. К .;
- 7.Романовский В. П. Процесс образования и расчет прочности опасного сечения при глубокой вытяжке. — Кузнечно-штамповочное производство, 1968, № 9.
- 8.Романовский В. П. Определение высоты деталей при многооперационной вытяжке. — Вестник машиностроения, 1957, № 5.
- 9.Романовский В. П. Технологические расчеты процесса многооперационной вытяжки высоких квадратных и прямоугольных коробок. — Вестник машиностроения, 1958, № 12.
- 10.Романовский В. П. Сопротивление срезу при вырубке-пробивке толстолистовых материалов. — Вестник машиностроения, 1973, № 7.
- 11.Романовский В. П. Показатели износа и стойкость вырубных и пробивных штампов. — Вестник машиностроения, 1974, № 9.
- 12.Романовский В. П. Расчетный метод прогнозирования величины заусенцев при разделительных операциях холодной штамповки. — Кузнечно-штамповочное производство, 1973, № 5.

13. Романовский В. П. Качество поверхности среза при вырубке-пробивке листовых металлов. — Труды ТПИ, Тула, 1977.
14. Романовский В. П. Выбор стали для рабочих частей вырубных и пробивных штампов. — Вестник машиностроения, 1977, № 4.
15. Романовский В. П. Расчет усилий и нагрузки режущих кромок штампов при чистой вырубке и пробивке. — Кузнечно-штамповочное производство, 1978, № 5.
16. Романовский В. П., Бер В. И., Исупов В. С. Вырубка и пробивка толстолистовых деталей в тяжелом машиностроении. Харьков, 1973.
17. Романовский В. П., Бер В. И., Исупов В. С., Жолткевич Н. Д. Чистовая вырубка и пробивка толстолистовой стали в горячем состоянии. — Технология и организация производства, Киев, 1976, № 7.
18. Романовский В. П., Мовшович И. Я., Долгов В. А. Исследование стойкости режущих элементов универсально-сборных штампов. — Кузнечно-штамповочное производство, 1970, № 6.
19. Романовский В. П., Мовшович И. Я., Долгов В. А. Применение универсально - сборных штампов. — Кузнечно-штамповочное производство, 1969, № 7.

### **Internet saytlari**

1. [www.sapr.ru](http://www.sapr.ru)
2. [www.solidedge.com](http://www.solidedge.com)
3. [www.solidedgetools.com](http://www.solidedgetools.com)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.uzavtosanoat.uz](http://www.uzavtosanoat.uz)
6. [www.google.uz](http://www.google.uz)
7. [www.google.ru](http://www.google.ru)
8. [www.zr.ru](http://www.zr.ru)
9. [www.automn.ru](http://www.automn.ru)

## 8 Ilova

### Solid State Diffusion of Metals

Theodore Greene

College of Engineering & Technology

Wentworth Institute of Technology

Boston, MA 02115

**Copyright Edmonds Community College 2015**

This material may be used and reproduced for educational purposes only.

#### **Abstract:**

Diffusion in solid state materials is a process whereby a liquid, a gas, or another solid can mix together with the host solid on the atomic level. For diffusion to occur, there must be a concentration gradient present and the rate of the diffusion process is greatly affected by an increase in temperature. By using post 1982 pennies which consist of a zinc core and a copper plated shell, the diffusion of copper into zinc can be readily shown. After subjecting the pennies to elevated temperatures for set periods of time, the copper layer ‘disappears’, leaving behind a zinc colored surface.

#### **Module Objectives:**

The demonstration or lab provides an introduction to solid state diffusion which can open students minds to chemistry concepts that are normally thought of liquid state only, but can also occur in the solid state.

#### **Student Learning Objectives:**

- Observe the process of metallic diffusion.
- Measure and record relative diffusion rates based on time.
- Gain an understanding of commercial diffusion applications.

**Equipment and Supplies Needed:**

- Pre and post 1982 pennies
- Oven / furnace capable of heating to 400oC (7500F)
- Stainless steel foil
- Scotch-BriteR or other flexible abrasive pad
- Wooden craft sticks
- Microscope and/or magnifying glass if available
- Rulers or calipers if available for measurements.

**Curriculum Overview and Notes for Instructor**

The process of diffusion is essentially a solid state chemical process where dissimilar materials attempt to achieve equilibrium as a result of a driving force due to a concentration gradient. This exchange of materials on the atomic level with metals occurs because metallic solids have atomic vacancies and other small scale defects that allow atoms to exchange places. In order for the atoms to have sufficient energy for exchange, high temperatures are quite often needed. In modern engineering applications, metals are often chosen for products and/or processes that are carried out at high temperatures. In these cases, undesired diffusion processes may occur.

To help with the scaffolding approach to learning, an analogy of diffusion can be described or presented in the liquid state when one or two drops of food coloring are added to a beaker of water. When viewed over time, one will observe that the initial bold coloring of the added droplet will eventually reach an equilibrium condition where the color is much more faint, but is even throughout the beaker of water. Though the driving force of high concentration is also present in this example, the liquid nature of the materials qualifies this is a dispersion process based on Brownian motion, rather than a true diffusion process. (Though the two terms are often used interchangeably in common language.)

Diffusion processes in solids are based on Fick's Laws(1) and when steady state conditions are not met which is quite typical for diffusion in solids, Fick's Second law results in a partial differential equation:  $\frac{\partial C}{\partial t} = D \frac{\partial^2 C}{\partial x^2}$ , where  $C$  is the concentration of the diffusant,  $x$  is a location within the host solid, and  $D$  is the diffusivity coefficient which can be expanded as follows:

$D = D_0 e^{-Q/RT}$ , where  $D_0$  is a pre-exponential constant depending on diffusing atomic species,

$Q$  is the activation energy for the diffusion process of interest,

$R$  is the universal gas constant, and

$T$  is the temperature in Kelvin.

The take-away here is that diffusion processes are critically dependent on temperature, concentration, and time. As any of these parameters increase, the rate of diffusion increases.

To relate diffusion to the student's environment, examples of case hardening of steel power transmission gears or some tooling components can be discussed. Case hardening refers to the diffusion of additional carbon into the surface, "case" of the object which is then used to impart an increased hardness and wear resistance to the part. As another example, biological cells rely on diffusion across the cell membrane for many different biological processes. Diffusion of a gas through a solid can be discussed with respect to standard latex balloons that are inflated with helium gas. After a fairly short amount of time, the balloons lose much of the helium pressure within the balloon through helium gas diffusion to the atmosphere. In an attempt to slow the helium diffusion, aluminum coated Mylar<sup>®</sup> balloons are often used at a premium cost. As a last example of diffusion for discussion, the standard PETE soda bottle is widely known to allow CO<sub>2</sub> to diffuse out over time. When this occurs, the resulting low level of carbonation in the beverage is often described as "flat" soda which is usually not desired.

### **Module Procedure**

1. Begin by establishing 4 or 5 groups of students to work on the experiment.

2. Each group should be provided with 3 or 4 post-1982 pennies, and one pre-1982 penny to be used as a control.
3. Have the students use the flexible abrasive pad to lightly clean each penny so that the copper color is prevalent. They do not have to be 100% shiny, but do need to have a copper look to them. Note: sandpaper should not be used as it will often aggressively remove material which is not the objective.
4. Once the pennies have been cleaned, they need to be sealed in stainless steel foil (approximately 3" x 4") with one-half of a standard wooden craft stick.
  - a. The pennies should be in a single layer.
  - b. The craft stick should not be in contact with the pennies.
  - c. Pliers or other tools can be used to facilitate an "air-tight" envelope being made from the stainless foil to reduce oxidation of the pennies when subjected to the oven/furnace.
5. With a furnace or oven set to 3800C (7150F), place all of the 'penny envelopes' in the furnace and mark the start time.
6. Remove one envelope after 8 minutes of exposure, and cool in a container of water. Once cooled, return the package to the students so they can open it, and lightly clean the pennies with the abrasive pad as needed.
  - a. Continue removing the 'penny envelopes' from the oven/furnace at 2 or 3 minute intervals, cool, and return to the students for cleaning.
  - b. Be sure student groups keep track of the exposure time for their pennies, and avoid mixing their samples with other groups.
7. When all pennies have been cleaned, allow student groups to observe the pennies from other groups to note any differences. Have students perform research to explain why none of the pre-1982 pennies show any diffusion.
8. Optional: Have students measure the diameter of the penny where diffusion has occurred, and convert this to diffused area. This can then be plotted vs. time along with the data from all other groups

1) Some chemistry classes may have performed a seemingly similar experiment where the copper or zinc has been dissolved away. In such experiments, the mass before and after will have changed. When the process is diffusion, the mass remains constant and can be verified through measurements.

2) Individual furnace temperatures may vary from the actual set-points. Therefore, it is suggested that a trial run be performed to determine an adequate time/temperature exposure. To keep the class moving along, it is recommended to use a maximum exposure time of 16 to 18 minutes, and a minimum time of 6 to 8 minutes. If these times do not produce acceptable results, increase or decrease temperature to facilitate more or less diffusion occurring.

### **Supporting Materials and References**

(1.) [http://en.wikipedia.org/wiki/Fick%27s\\_laws\\_of\\_diffusion](http://en.wikipedia.org/wiki/Fick%27s_laws_of_diffusion)

“Disappearing Copper – The Chemistry of Solids”, T. Greene, NEW presentation, Nov. 2013 (attached) 6

**Figure 1. Diffused pennies.** *Left column = 6 minutes, center = 11 minutes, right = 15 minutes at 3800C*